

“BOBURNOMA”DA INSONLAR ORASIDA HAYOT KECHIRUVCHI ORNITONIMLAR ETIMOLOGIYASI

Kenjayeva Dildora Eshmamatovna,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, o‘qituvchi.

dildorakenjayeva@44gmail.com

<https://orsid.org/0009-0005-7777-4607>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18340515>

Annotatsiya. Kishilik jamiyatida qushlar qadim-qadimdan insonlarning tarixi, madaniyati hamda turmush tarzida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Turkiy xalqlarda ba‘zi qushlar totem darajasiga ham ko‘tarilgan. Yoqut, oltoy, turkman, o‘zbek xalqlarida burgut ilohiy qudratga ega deb hisoblangan [9, 90]. Ornitonimlar ov qilish uchun yoki birga ov qilishga xoslangan, shuningdek, insonlarga ular go‘sht va patlaridan foydalanish maqsadida kerak bo‘lgan. Qushlar har bir xalqning madaniyati, adabiyoti, xalq og‘zaki ijodiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Ularning turlariga qarab foydalanish xususiyatlari o‘zgarib boradi. Ornitonimlar o‘zi yashayotgan muhitning iqlim sharoitiga moslashgan holda kun kechiradi. Ularning oziqlanishi, yashashi, ko‘payishi tabiiy sharoitlarga xoslangan bo‘ladi. Maqolada “Boburnoma”dagi qush nomlarning o‘z qatlamga mansub, faqat insonlar bilan hayot kechiradigan ba‘zi turlari haqida etimologik tahlil berilgan.

Kalit so‘zlar: ornitonim, zoonim, qushlar, etimologiya, lug‘at, chupchuq, bo‘dana, qorlug‘och.

Аннотация. В человеческом обществе птицы издавна занимали особое место в истории, культуре и образе жизни людей. У тюркских народов некоторые виды птиц достигли уровня тотемов. У якутских, алтайских, туркменских и узбекских народов орел считался обладающим божественной силой. Орнитонимы приспособлены к охоте или к охоте группами, людям они были нужны еще и из-за мяса и перьев. Птицы оказали влияние на культурную литературу и фольклор каждой нации. Способы их использования различаются в зависимости от вида птиц. Орнитонимы выживают адаптируясь к климатическим условиям окружающей среды в которой они живут. Их питание, выживание и размножение адаптированы к природным условиям. В статье представлен этимологический анализ названий птиц из группы «Бобурнома», принадлежащих к своему ярусу и обитающих исключительно рядом с людьми.

Ключевые слова: орнитоним, зооним, птицы, этимология, словарь, воробей, перепел, ласточка.

Annotation. Birds have long played a special role in human history, culture and lifestyle. Among the Turkic peoples, some birds have even risen to the level of totems. Among the Yakut, Altai, Turkmen and Uzbek peoples, the eagle was considered to have divine power. Ornithonyms were used for hunting together and people also needed their people meat and feathers to use. Birds have influenced the culture, literature and folklore of each people. Depending on the species of ornithonyms, their uses vary. Birds adapt to the climatic conditions of their environment. Their nutrition, survival and reproduction are adapted to natural conditions. The article provides an etymological analysis of the names of birds in the “Boburnoma” about some species belonging to their own stratum, which and live only with humans.

Keywords: ornithonym, zoonym, birds, etymology, dictionary, sparrow, quail, swallow.

Kirish va dolzarbligi. Tilimizdagi bugunga qadar mavjud bo‘lgan so‘zlar qadimgi davrlardan buyon yashab kelayotgani va turkiy qatlamga oid ma‘noni anglatishi ularning o‘z qatlamga tegishli so‘z ekanligini asoslaydi. XV asr biologik xilma-xillik, hayvonot dunyosining rango-rang dunyosi, hayvonlarga munosabat yuzlab atamalarda ifodasini topgan [4]. “Boburnoma” shu davr manbasi bo‘lib, turli soha vakillari uchun manba vazifasini o‘taydi. Tilining sodda, ravonligi, adabiy tilni qo‘llashi tilshunosni, adabiy

muhit va uning namunalari adabiyotshunosni, aniq faktlar tarixchini, tabiatshunos uchun o'lkalarning topografiyasi, iqtisodiy geografiyasiga mansub materiallar, hayvonot olamiga oid bilimlar zoologlar uchun ma'lumotlar manbai, elat, xalqlarning yashash tarzi, urf-odatlarining qiziqarli faktlari etnoflar uchun ayni muddaodir. "Boburnoma"da zoonimlarning 175 turi qayd etilgan, ulardan ornitonimlar guruhi ancha qismini tashkil etadi. Ko'rishimiz mumkinki, "Boburnoma" qomusiy asar sifatida bejizga tilga olinmaydi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Turkiy xalqlarda zoonimlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish tarixi Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asariga borib taqaladi. Unda 200 ga yaqin zoonim, jumladan, 100 ga yaqin qush nomlari uchraydi [9:5].

D.X.Bozorovning "O'zbek tili zoologik terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixi" nomli tadqiqotida o'zbek tilida mavjud qush nomlariga to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotda o'zbek tiliga xos ornitonimlar tavsiflangan [9]. R.Safarova zoonimlarning semantik munosabatlaridagi gipo-giperonimik jihatdan, shuningdek, B.P.Zaripov, B.Abdushukurov, A.J.Omonturdiyev, D.M.Yuldasheva, G.E.Hakimov, N.R.Nishonova, H.A.Saidova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida zoonimlar turli jihatdan o'rganilgan. "Boburnoma"ning S.Hasanov tomonidan P.Shamsiyev, S.Mirzayev tomonidan yaponiyalik Eyji Mano ilmiy-tanqidiy matni asosida tayyorlagan nashrida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, hayvon va o'simlik nomlari ko'rsatkichining nomlari kengaytirib berilgan [10,32].

"Boburnoma"da zoonimlarning o'z qatlamga oid leksemalari etimologiyasi tadqiqi tilimizning sof zoonimik nomlarini farqlash va ularni to'g'ri qo'llashda muhim vosita sanaladi. Asarda o'z qatlam, o'zlashgan qatlam va hind tilidagi qush nomlari mavjud. Quyida "Boburnoma"dagi o'z qatlamga oid va insonlar orasida yashay oluvchi qush turlarining ba'zilar haqida etimologik tahlil olib borilgan.

Tadqiqot natijalari. "Boburnoma"da bevosita insonlar orasida hayot kechiruvchi turkiy qatlamga kiruvchi ornitonimlar: qaldirg'och, chumchuq, bedana, olaqarg'a, chug'urchuq, qarg'a, zog'cha, yapaloq kabi qushlar haqida ma'lumotlar bor. Quyida bu qushlar zoonimik nomining kelib chiqishi haqida to'xtalamiz.

Asarda keltirilgan **qorlug'och** termini "Devon"da *qarğilač*, *qarliğaç*, XIV asr Xorazm obidalarida *qarluğaç* shakli keltirilgan. Bu zoonimning yasalişini D.Bozorova *qar* taqlidiy tovushi o'zagigi "l" yasama fe'l shakli qo'shilishi va -ğaç fe'ldan ot yasovchi affikslar jamlanmasidan hosil bo'lganini qayd etadi[1,56]. O'TELda Sh.Rahmatullayev zoonimni manbalarda *kardıyğ'ach*, *karlıyğ'ach* shakllarini, *qarlıyğ'ach* bir ma'noli, *qarg'ılach* so'zi esa "ko'rshapalak" ma'nosini anglatishi keltirilgan. Dastlab, *qarg'ılach* shaklida, keyin *qarlıyğ'ach*, l va d undoshi almashib *kardıyğ'ach* shakli, so'ng *qaldirg'âch* yuzaga kelgan [O'TEL,516]. Bu zoonim O'TIL izohida, chumchuqsimonlar turkumining bir oilasini tashkil etadigan, qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola kichkina qushcha [O'TIL, 227]. "Boburnoma"da *qorluğaç* tarzida a fonemasining o fonemasiga o'tishi shaklida berilgan. "Yana biri *qarchadur*, *qorlug'och* yo'sunluqdur,

qorlug'ochdin xili uluqdur, yakrang qop-qoradur" [BN,351]. Demak, hozirgi shakldan biroz farq bor. Qaldirg'ochni hamma bilgani sababli u faqat qiyoslangan shaklda ifodalangan.

Chupchuq (chumchuq) ornitonimi o'g'uzlar tilida *säcä* deb nomlanishidan Mahmud Qoshg'ariy xabar bergan. XI-XIV asrlar yodgorliklarida *säcä/seçä, seçäk, sercä, sarçä* shakllari borligi keltiriladi. Bugungi kunda Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp shevalarida *säcä*ni chumchuqqa qo'llanilishi keltirilib, u *säc-//seç-*="sochilmoq, tarqalmoq" fe'lidan deb taxmin qilinadi[1,55]. Chumchuq semasidagi *čapčūq* Devonda *čunčurğa//čančurğa, čibčuq* shakli Xorazm yodgorliklarida, *čibčuq//čupčuq// čumčuq* shakllari eski o'zbek tili obidalarida kuzatiladi. O'TILda ko'pincha xonadonlarga yaqin yashaydigan, don bilan oziqlanadigan kichik qush deya ta'rif beriladi [O'TIL,516]. O'TELda L.Z.Budakov lug'atida *chыbчыq, chubchuq, chupchuq, chimchik*, qirg'iz tilida *chымчык*, qozoq tilida *shымшық* tarzida talaffuz qilinishi keltirilgan. *chыbчық* "kichkina jonivor" ma'nosini anglatuvchi *chыбы* so'ziga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *чық* qo'shimchasi orqali yasalgan. Chumchuq semasi etimologiyasini keltiradi: *chыбы+чық=chыбычық>chыbчық>chымчық>chumchuq* [O'TEL,439].

Asarda *chupchuq* shaklida Xo'jand tabiatida keltirilgan: "*havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko'p bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chupchuq bezgak bo'lg'ondur*" [BN,62]. Bezgak insonlar bilan bog'liq kasallik bo'lib, qushlar bilan bog'liq kasalliklar haqida keyingi yillarda (parranda grippi) duch kelyapmiz. Insonlar bilan bog'liq kasallikning qushlarda uchrashi haqida Bobur davrida gapirilishi ajablanarli hol. Turli tarjimalarda bu xar xil talqinlarga sabab bo'lgan [6:100]. Asarning tabdilida ham "*Shunday rivoyat qiladilarki, chumchuq ham bezgakka chalingan ekan*" [2,36]. Bezgak bo'lishning asosiy sababi shahardan shimolda joylashgan tog'lar hisoblanadi [8,61]. Chumchuq ornitonimi faqat fonetik o'zgarishga uchraganligini ko'rish mumkin.

Yoqimli sayrashi va go'shti, tuxumi uchun boqiladigan **bedana** "Boburnoma"da *bo'dana* tarzida keltirilgan. Bedana ovi va Hindiston bedanasi ta'rifida keladi. Hindistonda bedananing to'rt-besh jinsi bo'lishini aytadi va ularni ta'riflaydi va ularning ona yurtidagi bedanalardan kam farq qilishini qayd etib o'tadi [3,79]. "*Yana bo'danadur. Agarchi bo'dana Hinduston maxsus emasdur, vale to'rt-besh jins bo'danadurkim, Hinduston maxsusidur. Bir bo'danadurkim, bizning viloyatlarga borur bo'danalardin uluqroqdur. Yana nadurkim, ul viloyatlarqa borur bo'danalardin qisqaroqdur, qanot-quyrug'ining qizilroq rangi bor. Bu jins bo'dana chirdak xayl-xayl uchadur. Yana bir bo'danadurkim, ul viloyatlarqa borur bo'danadin kichikraq, bo'g'zi bila ko'ksida qorasi ko'prak bo'lur. Yana bir bo'danadur. Bu bo'dana Kobulda oz-oz borur. Kichikkina bo'danadur, qorchadin bir nima uluqroq bo'lg'ay, Kobulda "qurotu" derlar*" [BN,349-350]. *Qo'ratu* "Boburnoma"da bedanaga o'xshatilgan[1:79]. Bedana *bo'lana* tarzida ham talqin qilingan[7:97]. Bedana tarixan *bildurč'in*, qoraxoni davri yodnomalarida *buldursin*, boshqa manbalarda *buyurčuq, böyürč'in, bildirč'in* kabi shakllarda qo'llanilgan.

D.Bozorova *budursin* “budur-budur” tovushga taqlid soʻzidan hosil boʻlganligini izohlaydi. Turkiy tillarda *bādānāx*, *būdānā*, *bödünö*, *pödönö*, *bödānā*, *bütānā* kabi fonetik variantlarda ishlatilgan [1,59]. Asarda bedananing 5 xil turi keltirilgan.

Olaqargʻa asarda Hindiston olaqargʻasi bilan solishtirilgan. [BN,366] “*Yana Hindustonning olaqargʻasidur, ul viloyatning olaqargʻasidain kichikraq va inichkarakdur. Boʻynida juzviy oqi bordur*” [BN,351]. OʻTILda chumchuqsimonlar turkumining qargʻalar oilasiga mansub, qora va kulrang patli qargʻa deya maʼlumot berilgan [OʻTIL,108]. Olaqargʻaning rangi va koʻrinishi solishtirilgan.

Chugʻurchuq zoonimi dastlab, *sīgīrčuq* Mahmud Koshgʻariy lugʻatida *sīgīrčiq*, *sīgīrčuq*, “At-tuhfa”da *sīgīrčiq*, *sīršiq*, Usmoniy turk tilida *čuğurjuq*, *sīgīrjiq* fonetik shakllari mavjud boʻlgan. Zoonim hozirgi oʻzbek adabiy tiliga *chugʻurchuq* tarzida yetib kelgan. D.Bozorovanning yozishicha, *čuğur* tovushga taqlid asosi bilan –čuq morfemasidan hosil boʻlgan. Alisher Navoiy asarlarida fors-tojikcha *sār* oʻzlashmasidan ham foydalanilgan [1,59]. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatida eski oʻzbek tilida tovushga taqlid soʻzidan yasalishi va etimologiyasi keltirilgan: *ugʻur+ы=chugʻurchы)+q=chugʻurchыq>chugʻurchiq* [OʻTEL,441]. Bobur hind diyori qushlari taʼrifida oʻz yurti qushlari va ularning xususiyatlarini solishtirib farqlaydi. Chugʻurchuq ham shorak qushi taʼrifida unga oʻxshashligi bayonida kelgan. “*Boshi qora, qanotlari ola, jussasi chugʻurchuqdin bir nima uluq va qaboroqdur*” [BN,348]. Chugʻurchuq zoonimi qora patli, hasharot va meva bilan oziqlanadigan, gala yuradigan chumchuqsimon qush [OʻTIL,519] hisoblanadi.

Qargʻa ornitonimi asarda xuddi shu shaklda keltirilgan. Ilk marta esa “Oltun yorugʻ” yodgorligida kelgan. D.Bozorovanning fikricha qargʻa termini “qar” tovushga taqlid orqali –ğa affiksini qoʻshish orqali yoki *qarq+a* yasalishi natijasida yuzaga kelgan [1,56]. Mazkur zoonim A.Navoiy asarlarida *zağ* sifatida qoʻllanilgan. OʻTELda “Devon”da ham shu tarzda talaffuz qilingan. Zoonim asli *qarr-qarr* tovushga taqlid soʻzidan –gʻa qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan boʻlsa kerak: *qarr+gʻa=qarrgʻa> qargʻa>qārgʻā* [OʻTEL,529].

“Boburnoma”da qargʻa Hindistonning murgʻi jangal qushining taʼrifida bor: “*Yana bir qushdur qargʻa bilan akkaga mushohabati bor*” [BN,351]. Shuningdek, asarda *zogʻ* leksemasi sinonim sifatida berilgan [3,529]. *Zogʻ*-u *zagʻan* aynan qargʻa-quzgʻun sifatida keltirilgan. “Fathnoma”da oʻlimtikxoʻr qushlar maʼnosida tilga olingan [BN,394]. Quzgʻun oʻlimtikxoʻr qush sifatida ilk bor Oʻrxoʻn-Enasoy yodgorliklarida qayd etilgan. Qadimgi turkiy til lugʻatida *qusqun* shakli ham uchraydi. D.Bozorova *qusqun* (asli *qus-qus*) takrorlanuvchi tovushga taqlid oʻzagidan yasalganligini va ikkinchi qism fonetik oʻzgarishga uchragan deb fikr bildiradi [1,56]. XIV asrga oid turkiy manbalarda fors-tojikcha *zāğ*, arabcha *ğurab*, eski oʻzbek tili yodnomalarida esa fors-tojikcha *zağan* maʼnodoshlari ham qoʻllangan [1,56]. OʻTILning izohida patlari tim qora (qora qargʻa)

yoki qora bilan kulrang aralash (ola qarg'a) ko'chmanchi qush sifatida berilgan [O'TIL,255]. Qarg'a ham hind qushlari bilan solishtirilgan o'rinlarda uchraydi.

Zog'cha zoonimi Hind bulbuli qushi ta'rifida uchraydi: "*Yana bir qo'yildur, uzunlug'i zog'cha bo'lg'ay, zog'chadin xili inichkarakdur*" [BN,351]. Zog'cha hajm orqali o'xshatishda faol qo'llangan.

Bizga boyo'g'li sifatida tanish **yapaloq** ornitonimi turli etimologik qarashlarda ifodalangan. Eski turkiy manbalarda *yabaqulaq* tarzida ifodalangan. *Yabalaq, yiblaq, Radlovning lug'atida yapalaq, yapqulaq, yabalaq* fonetik variantlarida uchraydi [1,51]. Abdushukurovning fikricha, zoonim *yab/yap* "yapaloq", "dumaloq" sifati va *qulaq* so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan [1,52]. O'TELda yapaloqqush "boyo'g'li", "boyqush" deya, o'zbek tilida *yäpälâq* va *qush* so'zlarining birlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Lug'atda bu so'zning kelib chiqishi *yabaqu* va *qulaq* so'zlaridan tarkib topgan. *Yabaqu* so'zi "o'siq va chigal sochli (tukli)" ma'nosini anglatganligi uning yomonlikdan darak beruvchi deb qaralishiga ko'ra tasviriy usul bilan anglashilgan. *Yapalaq* so'zi *yabaqu* so'zi oxiridagi va *qulaq* so'zi boshlanishidagi *qu* qismlarining talaffuz qilinmasligi, b undoshining p undoshiga almashuvi bilan yuzaga kelgan: *yabaqu qulaq > yapalaq, yapalaq > yäpälâq* [O'TEL,140 I].

"Boburnoma"da quyidagicha keltirilgan: "*Yana bir uluq shapparadur, chamagdar derlar. Uluqlug'i yapaloqcha bo'lg'ay*". Bobur ensiklopediyasida esa botqoq yapaloqqushi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin ma'lumoti mavjud [3,535]. Mazkur qush ta'rifi O'TILda yapaloqqush *q.* boyo'g'li. Boyo'g'li *zool.* Yapaloqqushlar turkumiga mansub, tunda ov qiladigan bir turli yirtqich qush [O'TIL,113] sifatida izohlangan. "XI-XIV asrlarga oid yozma manbalar tili" monografiyasida yapaloqqushning turli davr manbalarida uchragan nomlari keltirilgan: *bayquš/ bayğuš/ boyqush, qoburğa, čüvčän, köl qiğruv, čuğz, kuf, ukki, ügü/ ühi/ üki/ ükki/ ükü/ ögö* [1,51-52]. Yapaloq ornitonimi "Boburnoma" matnida bir marta uchrashini ko'rishimiz mumkin.

Xulosalar. Demak, qush nomlarining etimologiyasida hozirda qo'llanayotgan ornitonimlarning fonetik, morfologik jihatdan o'zgarishlarga uchraganini ko'rsakda, ularning yashash tarzi deyarli o'zgarmaganligini ko'rish mumkin. "Boburnoma" leksik jihatdan boy asar bo'lib, uning tadqiqi ko'p sohalarni qamrab oladi. O'z qatlam zoonimik nomlari asar matnida ustunlik qiladi. Zoonimlarning sut emizuvchi zoonimlar guruhi, ornitonimlar, hasharotlar, suvda va quruqlikda yashovchi hayvon nomlari mavjud. "Boburnoma"da zoonimlarning nomlanish yoki ov shakllari bilan bog'liq etimologik ma'lumotlar berilgan o'rinlar ham mavjud [5]. Shuningdek, zoonimlar ta'rifida ularning rangi, turi, jinsi, shakli, o'xshashligi, ozig'i, yashash sharoiti, o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили.—Тошкент: Нодирабегим, 2020.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар табдил қилган. —Тошкент, 2008.
3. Бобур энциклопедияси. —Тошкент: Шарқ, 2017.
4. Джурабвева М. “Бобурнома”да экологик тушунчаларни ифодаловчи лексик бирликлар. Miasto Przyszłości. —Kielce, 2022.
5. Kenjayeva D. “Boburnoma”dagi zoonimlarning etimologik tadqiqi.—Toshkent, 2023. Magistrlik diss.
6. Муҳаммадиева Д. «Бобурнома» туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. —Тошкент, 2021.
7. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. —Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
8. Сатимова Р. Бобурнинг табиатшуносликка оид қарашлари. “Science and education” scientific journal. 2021.
9. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвакултурологик хусусиятлари. -Тошкент, 2017.
10. Холманова З. «Бобурнома»- тил қомуси. —Тошкент: Akademnashr, 2021.

